

ABUL YUSR AL PAZDAVIYNING ILMIY MEROSI VA MOTURIDIYLIK MAKTABIDAGI O'RNI

*Toshkent Islom inistituti 4 bosqich
talabsi **Haqberdiyev Abdullo***

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom ilohiyotining muhim tarmog'i bo'lmish kalom ilmining paydo bo'lishi, rivojlanishi va Movarounnahrda shakllanishi tarixiy-ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqolada aqoid (kalom) ilmining VIII asrda mustaqil fan sifatida vujudga kelgani, uning turli nomlar bilan atalishi va to'rtta asosiy tasnifga — ilohiyot, nubuvvat, kavniyot va sam'iyotga bo'linishi haqida ma'lumot berilgan.

Muallif Movarounnahrda hanafiy mazhabining tarqalishi va kalom ilmining rivojlanishida Abu Mansur Moturidiyning (v. 333/944) tutgan markaziy o'rnini yoritib bergan. Olmon tadqiqotchisi Ulrix Rudolfning moturidiya ta'imoti rivojlanishini uch bosqichga ajratgan nazariyasi tanqidiy tahlil qilinib, mahalliy tadqiqotchi S.Oqilovning mulohazalari bilan boyitilgan.

Maqolaning asosiy e'tibori XI asr oxirida Nasaf vohasidan yetishib chiqqan uch buyuk alloma Sadrul-islom Abul-Yusr Muhammad ibn Muhammad Pazdaviy, uning akasi Faxrul-islom Abul-Hasan Ali ibn Muhammad Pazdaviy va Abul-Muin Nasafiylarning moturidiya ta'imotining Samarqandda mustahkamlanishidagi birgalikdagi ilmiy faoliyatiga qaratilgan. Xulosada moturidiya ta'imotining hanafiya maktabi an'analari zaminida o'ziga xos kalom maktabi sifatida shakllanishi va takomillashuvi umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: kalom ilmi, aqoid, moturidiya, Abul-Yusr Pazdaviy, Abu Mansur Moturidiy, hanafiy mazhabi, Movarounnahr, ash'ariya, Abul-Muin Nasafiy.

Kalom ilmi-islom ilohiyoti ilmi sifatida VIII asrda paydo bo'ldi. Bu ilm islom diniy ta'limotini asoslashga harakat qiladi. Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyiladi. Kalom ilmi turli diniy-siyosiy guruhlar (xorijiylar, qadariylar, jabariylar, murjiylar) paydo bo'lishi bilan bog'liq bahslar jarayonida vujudga keldi va taraqqiy topdi.

Ma'lumki, Aqoid-arab tilida "aqida" so'zining ko'pligi bo'lib, lug'atda "Bir narsani haq deb bilib, uni ko'ngilda mustahkam tutmoq" ma'nosini ifoda etadi. Islom aqoidi esa-Alloh taolo va Undan kelgan hamma narsa haqida to'g'ri e'tiqodda bo'lish demakdir. Kalom ilmining mohiyati ana shundan iborat¹.

Aqoid ilmi turli davrlarda har xil "al-Fiqh al-akbar", "Ilm al-kalom", "Usul ad-din", "Ilm at-tavhid" va nihoyat so'ngi nomi "Ilm al-aqoid" degan nomlar bilan

¹ Usmonxon Alimov. IX-XI asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. – Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2008. – B. 71.

atalgan. “Ilm al-kalom” aqoid fanining eng mashhur ismi hisoblanib, “al-Fiqh al-akbar” ismi bilan bir asrda, ya’ni VIII asrda yuzaga kelgan. Chunki, bu ism imom Abu Hanifa, imom Shofiiy, imom Molik va boshqa ulamolardan rivoyat qilingan. Ular o‘z ijti hodlarida kalom ilmi va mutakallimlarga tegishli hukmlar haqida bahs yuritganlar².

Hozirgi davrga kelib g‘arb va turk sharqshunoslari ushbu ilmga nisbatan “Ilohiyot” va “Teologiya” kabi nomlarni ishlatmoqdalar. Chunki, keyingi asrlarda aqoid ilmi to‘rtta tasnifga bo‘lingan. 1. *Ilohiyot*. Bunda Iloh va U zotga tegishli masalalar haqida bahs yuritiladi. 2. *Nubuvvat*. Bunda vahiy, payg‘ambarlik, rasullar va ularga tegishli masalalar haqida bahs yuritiladi. 3. *Kavniyot*. Bunda borliqdagi mavjud inson, farishta, jin va sababiyat qonunlari haqida bahs yuritiladi. 4. *Sam‘iyot*. Bunda eshitish bilangina, ya’ni asosan naqlga tayanilgan holda sobit bo‘ladigan aqidalar haqida bahs yuritiladi. Bular asosan g‘ayb olamiga tegishli masalalar hisoblanadi. Shuning uchun mazkur qismni “g‘aybiyot” ham deyiladi.³

Dastlab ko‘pchilik, xurosonlik va movarounnahrlik ulamolar Kufada Abu Hanifa ta’limoti bilan tanishadi va uning qarashlarini o‘z sayohatining samarasi o‘laroq ona yurtiga olib keladi. Jumladan, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarga mazkur ta’limot bir oz kechroq bo‘lsa-da, to‘qqizinchi asrda yetib keladi. X asrga kelib esa, ayniqsa, Samarqand Movarounnahr miqyosida yirik va yetakchi islom ilmi markazlaridan biriga aylandi. Bu zamin farzandlari bo‘lmish Abu Muqotil Samarqandiy, Abu Muhammad Dorimiy, Abul-Yusr Pazdaviy va Abu Hafs Nasafiy kabi yirik olimlar kalom ilmining rivojiga katta hissa qo‘shdilar. O‘sha davrda qarmatiy, qadariy, jahmiy, jabariy, xorijiy va mo‘taziliy kabi adashgan va bid’atchi firqalar paydo bo‘ldi. Ular o‘rtasidagi aqidaviy tortushuvlar keskin tus oldi. Islom olamida aqida borasida ahvol ancha mushkul edi. Ulamolar o‘rtasida avj olayotgan bahs munozaralar sunnat ahli o‘rtasiga tafriqa sola boshladi. Ana shunday bir vaziyatda, ahli sunna val-jamoa aqidalarini bir biriga zid bo‘lgan xilma-xil bid’atchi firqalardan muhofaza qilish maqsadida kalom ilmi vujudga keldi.

Umaviy xalifasi Umar ibn Abdulaziz, ulamolardan Zaynul-obidin, Hasan Basriy va Imom A‘zamlar kalom ilmining dastlabki rahnamolari hisoblanadi. Imom A‘zam birinchilardan bo‘lib, aqida ilmida “al-Fiqh al-akbar” kitobini yozdilar. O‘sha paytlarda aqida (kalom) ilmi fiqhdan ajralmagan edi. Noto‘g‘ri aqidada bo‘lgan bid’atchi firqalar ko‘paygach, kalom ilmi fiqh ilmidan ajralib chiqib, tafsir va hadis ilmlari kabi asosiy ilmlardan biriga aylandi. Mazkur ilm tobeinlar davridan boshlab, ya’ni hijratning ikkinchi asrida mustaqil fan sifatida zohir bo‘la boshlagan. Mashhur tobeinlardan Hasan Basriy aqida masalalari bo‘yicha dars aytgani, mo‘tazila oqimining boshlanishi ham o‘sha paytda ro‘y bergani tarixiy manbalardan ma’lum. Abu Hanifa yashagan davrda esa islom niqobi ostida turli oqim va firqalarning yuzlab

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. – Toshkent. Movarounnahr. 2005. – B. 8.

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. – Toshkent: Movarounnahr. 2005. – B. 66.

turlari vujudga kelgandi. Ular bilan kurashish uchun esa aqida mustahkam bo'lishi zarur edi. Bunday dolzarb masalaga Abu Hanifa befarq qarab tura olmagan boisi, aqida faniga oid birinchi asar-“al-Fiqh al-akbar” shuningdek Usmon al-Battiy⁴ (al-Bustiy)ga atab bitilgan raddiyasi va beshta vasiyatnomasini yozib qoldirganlar. Demak, hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit nafaqat faqihlar peshvosi, balki kalom ilmiga ham asos solgan buyuk siymolardan bo'lgan⁵. Bu ilmning asoschilari samarqandlik Abu Mansur Moturidiy va iroqlik Abul-Hasan Ash'ariy islom olamining osmonida yorqin yulduzlar kabi porladilar⁶. Avvalo, shuni qayd etib o'tish lozimki, moturidiya ta'limotini faqat Abu Mansur Moturidiyning o'zi tartibga solgan emas. Balki, ta'limotning asoslari ungacha ham ma'lum darajada shakllangan edi. Kalom ilmi bilan bir qatorda hadis va fiqh ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan alloma Abu Mansur Moturidiy hanafiy mazhabi fiqhini mukammal o'rganib, o'z aqidaviy ta'limotlarida Abu Hanifaning “al-Fiqh al-akbar” kitobiga asoslanadi. Imom Moturidiy yashagan davrda islom olamida e'tiqod masalalari bo'yicha bir-biriga qarama-qarshi firqalar o'rtasida munozaralar kuchayib, ba'zan qonli mojarolar bilan yakunlanar edi. Ana shunday ziddiyatli davrda Abu Mansur Moturidiy qilichlar hal eta olmagan, musulmonlarni tarqoqlikka olib borayotgan e'tiqodiy oqimlarga qarshi o'z aqlu zakovatlarini, oyat va hadislardan olingan, har qanday aqlni taslim qiladigan dalillar asosida o'ta muhim muammolarni hal etdilar⁷.

Mazkur ikki olimning fikrlari tahlil qilinsa, H. Islomiyning Moturidiyni mutasavvif avliyo martabasiga ko'targani to'g'ri, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki, hayoti va ijodini o'rganayotganimiz Abul-Yusr Pazdaviy bizning eng dastlabki shohidimiz bo'lib, u o'z ma'lumotlarida Moturidiyning shogirdi bo'lgan katta bobosiga tayanadi. Uning ta'kidlashicha, Moturidiy zohid bo'lgan shu bilan birga undan ko'p karomatlar zohir bo'lgani Pazdaviylar sulolasida uzoq vaqt hikoya qilib yurilgan⁸. Ma'lumki avliyolik darajasiga yetmagan kishidan karomatlar sodir bo'lmaydi. Shunday ekan H. Islomiy keltirgan ma'lumotlar Pazdaviydan naql qilingan rivoyatga uyg'un, degan xulosa kelib chiqadi. Tadqiqotchi olim Saidmuxtor Oqilov esa “avliyo” so'zini “mufasssir”, “muhaddis” yoki “faqih” kabi ilmiy unvon ma'nolarida tushungan ko'rinadi. Bu esa bir oz noto'g'ri tushuncha hisoblanadi.

⁴ Ba'zi manbalarda, ayniqsa g'arb tadqiqotchilarining maqolalarida Abu Hanifa murjiylar tarafdori bo'lgan degan xulosaga kelingan. Bu fikr noto'g'ridir. Chunki Abu Hanifa “Risola ila Usman al-Bustiy” nomli risolasida murjiylarga qarshi chiqqan. Chunki Usman al-Bustiy Abu Hanifani murjiylardan deb hisoblagan.

⁵ Shayx Abdulaziz Mansur. Aqoid matnlari. –Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006. – B. 6.

⁶ Usmonxon Alimov. IX-XI asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. –Toshkent. Movarounnahr nashriyoti. 2008. – B. 73.

⁷ Bobomurod Hoji Ahmadjon. Sof islomiy aqida. –Toshkent. Movarounnahr nashriyoti. 2005. – B. 24.

⁸ Ulrich Rudolf. Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – Toshkent: Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002. – B. 147; Abul-Yusr Pazdaviy. Usul ad-din. – Qohira: Dor ihyo-l-kutub-l-arabiya, 1963. – B. 14.

Moturidiya ta'limotining Movarounnahrda rivojlanish bosqichlari haqida olmon tadqiqotchisi U. Rudolf ushbu ta'limotning rivojlanish bosqichlarini uchga bo'lib ko'rsatadi.

Birinchi bosqich X asr oxirigacha bo'lgan davr hisoblanib, uning fikricha, bu davrda moturidiyaning taraqqiyoti uchun hech qanday o'zgarish sodir bo'lmagan. Rudolf bunda faqat Moturidiyning tarafdori sifatida Abu Saloma Samarqandiy va uning "Jumal usul ad-din" asarini ko'rsatadi va Movarounnahr hanafiylarining ko'pchiligi Moturidiyni o'sha davrda jiddiy qabul qilmas edilar, deb ta'kidlaydi. U o'z fikrining isboti uchun Abu Lays Samarqandiy asarlarida umuman Moturidiyni tilga olmaganligini misol tariqasida keltiradi. Tadqiqotchi olim Saidmuxtor Oqilov: "Rudolfning ushbu fikriga qo'shilib bo'lmaydi chunki, bitta olimning Moturidiyga murojaat qilmagani bunday xulosaga kelishga asos bo'la olmaydi", deydi. O'z fikrining isboti o'laroq "Abul-Muin Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti" nomli kitobida o'sha davrda movarounnahrlik hanafiy olimlar orasida moturidiyning tarafdorlari haqida so'z yuritgani, Abul-Muin Nasafiy "Tabsira"da ularni bayon qilib o'tgani hamda "Bunday olimlar haqida gapiraversam, kitobim tugamaydi", deganini misol tariqasida keltiradi. Olim o'z fikrini davom ettirib, Nasafiy o'ndan ortiq hanafiy ulamolar haqida xabar berar ekan, ularni Moturidiyga xayrixoh bo'lganligini bir qancha rivoyatlar bilan ko'rsatib o'tadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur davrda Abu Mansur Moturidiyning o'zi ham faoliyat olib borganini unutmaslik kerak. Abu Lays Samarqandiy esa asosan Balx olimlaridan ta'lim olgan. Uning ustozlaridan Abu Ja'far Handavoniy, Xalil ibn Ahmad Qozi Sijziy va Muhammad ibn Fazl Balxiy kabi olimlarni sanab o'tish mumkin. Ko'rinib turibdiki, Abu Lays Samarqandiy balxlik olimlardan ta'lim olgani bois, movarounnahrlik olimlar ijodiga unchalik ahamiyat bermagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun Rudolfning fikriga bu olimning qarashlari asos bo'la olmaydi. Demak, X asrdan boshlab Moturidiyning ta'limoti bu mintaqada hanafiya ta'limoti ta'siri ostida endigina yuzaga kelayotgan edi, degan xulosaga kelish mumkin, deydi.

Rudolf ikkinchi bosqichni XI asr deb ko'rsatadi va ushbu davrda ash'ariylarning mavqei Xurosonda sezilarli darajada oshib borganini ta'kidlaydi. Ushbu davrda ash'ariylar va movarounnahrlik hanafiylar o'rtasida turli tortishuvlar, bahs va munozaralar bo'lib turar edi. Munozaraning asosini Allohning sifati azaliymi, yoki muvaqqatmi, degan muammo tashkil qilar edi. Rudolf bu tortishuvlarda ash'ariylardan Abu Bakr ibn Furak (v.1015-y.) va Abu Is'hoq Isfaroyiniy (v.1027-y.), movarounnahrlik hanafiylardan Abu Shakur Solimiyni misol tariqasida keltiradi va ikki tomon vakillari, ayniqsa Solimiyni Moturidiyga umuman murojaat qilmaganiga taajjublelanadi.

Shu tariqa ushbu bosqichda ham moturidiya ta'limoti uncha taraqqiy etmagan degan xulosaga keladi. Rudolfning ushbu fikrlariga nisbatan tadqiqotchi olim S.Oqilov

tomonidan quyidagicha fikr bildiriladi⁹. Abu Shakur Solimiyning “at-Tamhid fi bayon at-tavhid” asarining ayrim o‘rinlarida haqiqatda ash’ariylar bilan bo‘lgan munozara va tortishuvlar o‘rin olgan. Lekin Solimiy o‘z asarida ash’ariylarga raddiya berar ekan, Moturidiy fikrlarini birinchi ustunga qo‘yganiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun Rudolfning ushbu fikri ham mulohazalidir. Chunki Rudolf, dastlab moturidiya ta’limotining rivojlanish bosqichining yuqoriga ko‘tarilgan davrini XI asr deb ko‘rsatadi va keyingi gapi bilan o‘z fikriga o‘zi qarshi chiqadi. U XI asr oxirlariga to‘xtalar ekan, Abul-Muin Nasafiyning nomini tilga oladi va ushbu davrda moturidiya ta’limotining rivojlanishida uning o‘rni nihoyatda katta bo‘lganini alohida qayd etadi. Rudolfning fikriga ko‘ra, Moturidiy bilan Nasafiy davrlari o‘rtasida ushbu ta’limotning rivojida bo‘shliq davr paydo bo‘lib, bu yerda Nasafiyga moturidiya ta’limoti kim orqali yetib kelgan, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bizning fikrimizcha, Nasafiy moturidiya ta’limotini Abdulkarim Pazdaviy va Abul-Yusr Pazdaviylar orqali o‘rgangan bo‘lishi mumkin.

Demak, xulosa qilish mumkinki, XI asrda moturidiya ta’limoti garchi ushbu nom bilan hali atalmagan bo‘lsada, hanafiy ulamolari tomonidan rivojlanib borayotgan edi.

Yuqorida keltirilgan jumalarda tadqiqotchi S. Oqilov U. Rudolfning qarashlarini bayon qila turib, Allohning sifatleri haqida “u azaliymi yoki muvaqqatmi” degan iborani ishlatgan. Tadqiqotchi bu so‘zi bilan aqida borasida jiddiy xatoga yo‘l qo‘ygan. U ham bo‘lsa, Allohning sifatlariga nisbatan “muvaqqat” lafzini ishlatganidir. Aslida tadqiqotchi bu yerda “muvaqqat” lafzining o‘rniga “hodis” lafzini ishlatga to‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki “muvaqqat” lafzi biror narsaning qanchadir muddat bor bo‘lib, keyinchalik yo‘q bo‘lib ketishini anglatadi. Alloh taoloning sifatleri haqida so‘z borganda bunday deyish mumkin emas.

Abul-Muin Nasafiy davriga kelib, ash’ariya ta’limotining ta’sir doirasi oshadi va Bog‘dodgacha kengayib, Xuroson shaharlaridan bo‘lmish Nishopurda ham keng tarqala boshlaydi. Hatto, Nishopur va Xurosonning boshqa shaharlarida XI asrlarda ash’ariylarning bir guruh namoyondalari ta’lim bera boshlaydilar. Aynan shu Nishopurda ash’ariya maktabining mashhur namoyondalari ustoz va shogird Abul-Maoliy Abdulmalik ibn Abdulloh Juvayniy (1028-1085-y.) hamda Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy (1058-1111-y.) kabi mutakallimlar keng faoliyat olib borganlari bois bu o‘lkada ash’ariya ta’limotining ta’sir doirasi sezilarli darajada oshdi. T.f.d. A. Mo‘minovning ta’kidlashicha¹⁰, movarounnahrlik hanafiy ulamolarning xurosonlik shofiiylar bilan o‘zaro g‘oyaviy raqobatlari natijasida hanafiylarning ilmiy faoliyatlarida shofiiylarga nisbatan asosiy yo‘nalishni belgilab berdi. Bu davrga kelib X asrda samarqandlik hanafiylarning “Juzjoniya”, “Iyodiya”

⁹ Oqilov S. Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta’limoti. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – B. 112.

¹⁰ Mo‘minov A. Movarounnahr hanafiylik ta’limoti tarixi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2013. – B. 84.

kabi nomlar bilan shakllangan aqidaviy ta'limoti Abul-Muin Nasafiy, Abul-Yusr Pazdaviy, Abu Shakur Solimiy hamda Alouddin Samarqandiy kabi olimlarning say'harakatlari natijasida "Moturidiya" degan shaklga aylanib borar edi. A. Mo'minovning ta'kidlashicha, XII asrda Abu Hafs Nasafiyning "Aqoid" asarining paydo bo'lishi moturidiya ta'limoti tarixida katta voqea bo'ldi.

XI asr oxirlarida Nasaf vohasidan yetishib chiqqan uch buyuk alloma-Sadrul-islom Abul-Yusr Muhammad ibn Muhammad Pazdaviy (v. 493/1100), uning akasi Faxrul-islom Abul-Hasan Ali ibn Muhammad Pazdaviy (v. 482/1089) va Abul-Muin Nasafiylarning mushtarak tarzda olib borgan ilmiy faoliyatlari Samarqandda moturidiya ta'limotining rivojlanishi uchun ulkan xizmat bo'ldi. Lekin keyingi davrlarga kelib moturidiya ta'limotining mavqei Buxoroda ham sezilarli darajada ko'tarilib bordi. Buxoroda ushbu ta'limotning rivojlanishida Alouddin

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Movarounnahrda kalom ilmining rivojlanishida, shubhasiz buyuk mutakallim Abu Mansur Moturidiyning (v. 333/944-y.) o'rni nihoyatda katta bo'lgan. U yashagan davrga kelib (IX asrning oxiri - X asrning birinchi yarmi) islom dinida paydo bo'la boshlagan turli guruh va firqalarning soni ko'payib ketgan edi. Bu hol imon-e'tiqod masalalarida ko'plab ixtiloflarni keltirib chiqardi. Shunday guruhlardan biri mu'taziliylar bo'lib, ular aqidaviy masalalarni sharhlashda naqliy dalillardan (Qur'on va hadis) aqliy dalillarni ustun qo'yar edilar. Natijada salaf hamda ahli hadis ulamolari orasida kalom ilmiga nisbatan tanqidiy fikrlar paydo bo'la boshladi. Mana shunday murakkab sharoitda ulug' alloma-mutakallim Abu Mansur al-Moturidiy faoliyat olib borgan va vujudga kelgan muammoli vaziyatni ilmiy asosda bartaraf etishda o'zining katta hissasini qo'shdi. Shu tariqa Moturidiy hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifaning ta'limotiga suyanagan holda o'ziga xos kalom maktabini yaratdi va uni imkon boricha rivojlantirib takomillashtirdi.

Foydalanilgan adbiyotlar ruyxati

1. *Alimov U.* IX–XI asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi. – Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2008. – 71, 73-b.
2. *Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.* Sunniy aqidalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2005. – 8, 66-b.
3. *Shayx Abdulaziz Mansur.* Aqoid matnlari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006. – 6-b.
4. *Bobomurod Hoji Ahmadjon.* Sof islomiy aqida. – Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2005. – 24-b.
5. *Rudolf U.* Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – Toshkent: Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002. – 147-b.
6. *Abul-Yusr Pazdaviy.* Usul ad-din. – Qohira: Dor ihyo-l-kutub-l-arabiya, 1963. – 14-b.
7. *Oqilov S.* Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta'imoti. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. – 112-b.